

### **3-mavzu: "Sayroqi qushcha ". Hikoya(Zamira Ibrohimova)**

#### **Darsning maqsadi:**

**a)ta'limiy:** o`quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.

**b)tarbiyaviy:** o`quvchilarga qushlarga ozor bermaslikni, ularga g`amxo`rlik qilishni o`rgatish, o`quvchilarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

**c)rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:**Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** Suhbat, tushuntirish,"Aqliy hujum“ metodi, savol-javob, ta'limiy o`yinlar.

**Dars jahozi:** Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

#### **Darsning borishi:**

**I.Tashkiliy qism:**Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O`quvchilarni darsga hozirlash.

Ma'naviyat daqiqasi o`tkaziladi.

**II.Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – "*Buyuk mehring*" she'rini o`quvchilar yoddan aytib beradilar.

Buyuk bobolarimiz haqida savol-javob o`tkaziladi.

**"Klaster“ metodi.**



**III.Yangi mavzu bayoni.** Chustiy qalamiga mansub bo'lgan quyidagi hikmatli so'zni izohlang.



O'quvchilar hikmatli so'z haqida o'z fikrlarini bildiriradilar va mazmunini izohlaydilar.

Bugungi mavzu e'lon qilinadi:**"Sayroqi qushcha"** hikoyasi.

Yangi mavzu o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi. Muallif haqida ma'lumot beriladi.

### ZAMIRA IBROHIMOVA

*Zamira Ibrohimovaning qator hikoya va ertaklari gazeta va jurnallarda to'plam holida, „Chashma“, „Uyqu nega xafa bo'ldi“, „Tish qurti haqida ertak“ va „Gulbahorning do'stlari“ kabi asarlari alohida kitob shaklida chop etilgan. Uning „Kichkintoylarni Amir Temur hayoti va faolivati bilan tanishtirish“, „Kichkintov doston tina-*

**Lug`at ishi:**

**Hayratlanib** – hayron qolib

**Shinam** – ko`rkam

”Sayroqi qushcha“ hikoyasi o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.

**Dam olish daqiqasi o`tkaziladi.**

**IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Savollar:**

1.Xosiyatxonning dadasi nima olib keldi?

2.Nima uchun qushcha qafasda tinmay sakray boshladi?

3.Opa-singillar nimalar yig`ib olib kelishdi?

4.Onasi qafas ichini nima uchun „daraxtzor“ deb atadi?

5.Qushlarning sayrashida qanday hikmatlar bor ekan?

6.Hikoyadan kanareyka qushi haqida qanday ma'lumotlarni bilib oldingiz?

**”Mening loyiham“ mashqi.**

„Qushlarni ko`paytirish“ loyihasi ustida suhbat o`tkaziladi. Buning uchun nimalarga e'tibor qaratish kerakligi haqida tushuntiriladi.

**"Topqirlik" mashqi.** O`quvchilar darslikda berilgan topishmoqlarning javobini topadilar.

**"Tinglang"** O`quvchilar musiqani tinglab, darslikda berilgan savollarga javob beradilar.

### **Mashq daftar bilan ishslash.**

**1-topshiriq.** Berilgan gaplarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang. To‘g‘ri gaplarga ✓, noto‘g‘ri gaplarga ✗ belgisini qo‘ying.

Bugun Xosiyatxonning dadasi qafasda sayroqi qush olib keldi.

Qushcha chiroyli, mayin patlari oq, jajji qanotlarining uchlari qora edi.

Opa-singil qushchani tomosha qilishmadni.

Opa-singil tezda shox-shabba yig‘ib kelishdi.

Qushcha sakrashda davom etardi.

Qushcha qizaloqlarni ko‘riboq sayrab ketdi.

**2-topshiriq.** Darslikda berilgan topishmoqlarning javobini topib yozing.  
O`quvchilar topishmoqlarning javobini topib,yozadilar.

**3-topshiriq.** Matn asosida bo‘s sh o‘rnlarni to‘ldiring.

Bugun Xosiyatxonning dadasi qafasda **sayroqi qush** olib keldi. Xosiyatxon singlisi **Hidoyatbonu** bilan qushchani ko‘rib, **quvonib ketishdi**. So‘ng qafas yoniga kelib, uni tomosha qila **boshlashdi**. Qushcha chiroyli, mayin patlari sariq, **jajji qanotlarining** uchlari oppoq edi.

**4-topshiriq.** “Qushlar – bizning do‘stimiz” mavzusida kichik matn yozing.  
Bu topshiriq uy vazifasi qilib beriladi.

**5-topshiriq.** Quyidagi jadvalda yashiringan qushlar nomini toping. Qushlar nomini turli ranglarda bo‘yang.

M	A	Y	O	H	A	K	K
T	O	N	Q	Ch	U	M	A
T	V	A	Q	U	Sh	Ch	U
O'	U	T	U	R	N	A	Q
R	S	L	A	T	O'	T	I
G'	A	Y	Y	L	A	K	.

Mayna, tovus, to`rg`ay, turna, oqqush, hakka, chumchuq, to`ti, laylak kabi qush nomlari kelib chiqadi.

#### **V.Darsni yakunlash va o`quvchilarni baholash.**

**Savol-javob o`tkaziladi.**

- Opa-singillar sizlarga yoqdimi?

-Hikoyadan qanday xulosa qildingiz?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

#### **VI.Uyga vazifa berish. Hikoyani o'qib, so'zlab berishga tayyorlaning.**

**4-mavzu: "Vatan yoshlari" she'ri(Azim Suyun)**

**Darsning maqsadi:**

**a)ta'limiyl:** o`quvchilarni she'r matni bilan tanishtirish, she'r mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.

**b)tarbiyaviy:** o`quvchilarga yosh avlod uchun yurtimizda yaratilayotgan imkoniyatlar haqida tushuntirish, ularni Vatan uchun munosib farzand bo`lishga intiladigan qilib tarbiyalash.